



O'ZBEKISTON SHAROITIDA MEHNAT MIGRATSIYASINING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Umarova Gulandom

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

ORCID: 0009-0001-1752-1166

gulandom.u1983@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mehnat migratsiyasining zamonaviy ilmiy tadqiqotlardagi o'рни, unga berilgan asosiy ta'riflar va uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ko'rsatadigan ko'p qirrali ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda migratsiyani shakllantiruvchi omillar tizimlashtirilib, mehnat bozoridagi tengsizlik mavjudligi aniqlangan, migratsiya jarayonlarining uzluksizligi amalga oshishiga to'xtalinib, migratsiyani tartibga solish chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: migratsiya, ishchi kuchi, milliy, mintaqaviy, xalqaro, mehnat resurslari, ko'chuvchanlik, aholi, hudud, demografik jarayon, mehnat bozori, bandlik.

НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА

Умарова Гуландом

Международная исламская академия Узбекистана

Аннотация. В данной статье анализируются место трудовой миграции в современных научных исследованиях, основные определения, данные ей, а также ее многогранное влияние на социально-экономическое развитие. В исследовании систематизированы факторы, формирующие миграцию, отмечена непрерывность миграционных процессов при наличии неравенства на рынке труда, а также разработаны предложения по реализации мер регулирования миграции.

Ключевые слова: миграция, рабочая сила, национальный, региональный, международный, трудовые ресурсы, мобильность, население, территория, демографическая ситуация, рынок труда, занятость.

DIRECTIONS FOR IMPROVING THE ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS OF LABOR MIGRATION IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN

Umarova Gulandom

International Islamic Academy of Uzbekistan

Abstract. This article analyzes the place of labor migration in modern scientific research, the main definitions given to it, and its multifaceted impact on socio-economic development. The research systematizes the factors forming migration, highlights the continuity of migration processes due to existing labor market inequalities, and develops proposals for the implementation of measures to regulate migration.

Keywords: migration, labor force, national, regional, international, labor resources, mobility, population, territory, demographic process, labor market, employment.

Kirish.

Mehnat migratsiyasi hozirgi globallashuv davrida o'ta muhim ijtimoiy-iqtisodiy hodisalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu jarayon ko'plab mamlakatlarning milliy va mintaqaviy rivojlanish trayektoriyalariga jiddiy ta'sir ko'rsatib, mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi, u bir tomondan rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ishsizlikni kamaytirish va pul o'tkazmalari orqali iqtisodiyotga yordam berish vositasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, jiddiy muammolar jumladan, migrantlar huquqlarini himoya qilishdagi kamchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Migratsiya (lotin tilidagi migration so'zidan olingan bo'lib - ko'chish, ko'chib o'tish ma'nolarini anglatadi) – kishilarning o'z doimiy yashash joylarini doimiy yoki uzoqroq muddatga ma'muriy chegarani kesib o'tgan holda o'zgartirish hisoblanib, juda keng qamrovli va murakab jarayon sanaladi. Xususiyatlariga ko'ra migratsiya: hududiy yo'nalishiga, muddatiga, tashkil etilgan yoki etilmaganiga, qonuniy yoki noqonuniyligiga qarab klassifikatsiya qilinadi.

Hududiy yo'nalishiga ko'ra migratsiya tashqi va ichki migratsiyaga bo'linadi.

Ichki migratsiya deb biror bir mamlakat, viloyat yoki ma'muriy hududiy birlik ichida aholining bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chishiga aytiladi (Abdurahmonov, 2019). Bu xil migratsiya ham o'z navbatida to'rt yo'nalishga bo'linadi: shahardan-shaharga, shahardan-qishloqqa, qishloqdan-shaharga, qishloqdan-qishloqqa. Migratsiya ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan o'rganilib ta'riflar berilgan, jumladan, Tolametovanning (2016) ta'kidlashicha, mehnat migratsiyasining asosiy belgisi "o'zining ish joyini o'zgartirishga qaratilgan harakat" (Tolometova, 2016). hisoblanadi. Bu ta'rif jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuchi iqtisodiy manfaatni aks ettiradi. Rossiyalik olim Tryukanova (1996) globallashuv sharoitida mehnat migratsiyasi modellarining savdo oqimlari dinamikasi bilan o'xshashligiga e'tibor qaratadi. Uning fikricha, mamlakatning rivojlanish darajasi ortishi bilan nafaqat tovarlar, balki migrantlarning sifat ko'rsatkichlari, salohiyati, malaka va ko'nikma tarkibi ham kengayadi (Трюканова, 1996). Bu yondashuv migratsiyani faqat mexanik harakat emas, balki inson kapitalining taqsimlanishi sifatida baholaydi. Xalqaro mehnat almashinuvi bo'yicha mutaxassis Yanovskiy (2001) mehnat migrantining iqtisodiy rolni quyidagicha tavsiflaydi: mehnat migranti o'zini va oilasini moddiy ta'minlash bilan birga, mamlakatning soliqqa tortiladigan bazasini kengaytiradi. U migrantning malaka oshirishi yoki qayta tayyorgarlikdan o'tishi orqali mehnat bozorida talab qilinadigan mutaxassisga aylanishini qayd etadi (Яновский, 2001). Mehnat migratsiyasining ta'siri yakka migrant turmush tarzi bilan cheklanib qolmaydi. Muxammedov va Arabovlar (2020) ta'kidlaganlaridek, mehnat migratsiyasi faqat migrantlarning turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, bandligi, daromadlari, psixologiyasi, madaniyati va dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatibgina qolmay, balki: "U ishchi kuchi eksportyorlarining ham, ularni qabul qiluvchi mamlakatning ham ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga jiddiy va ko'p tomonlama ta'sir ko'rsatadi" (Muxammedov va Arabov, 2020). Bu migratsiyaning makroiqtisodiy ahamiyati pul o'tkazmalari, innovatsiyalar transferi va demografik o'zgarishlar kabi jihatlarini yaqqol ko'rsatadi.

Aholi migratsiyasi qator omillar ta'sirida vujudga keladi. Bu omillarni shartli ravishda iqtisodiy, demografik, siyosiy, ijtimoiy va ekologik omillarga bo'lish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mehnatga qobiliyatli aholining ishlab chiqarishni rivojlantirish va joylashtirishdagi o'zgarishlar bilan bog'liq, makoniy ko'chib yurishi mehnat migratsiyasini tashkil qiladi. Ishlab chiqarishning chegarasi va shunga muvofiq ravishda ish haqi baravarlashmas ekan, mehnat migratsiyasi mavjud bo'laveradi deyishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotning maqsadiga erishish uchun, mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar qiyosiy tahlil qilindi. Tashkiliy-iqtisodiy omillar (masalan, migrantlarni qo'llab-quvvatlash xarajatlari, imtiyozlar) va natijaviy ko'rsatkichlar (pul o'tkazmalari, norasmiy bandlik darajasi) o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun iqtisodiy-statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Tanlangan usullarning majmui tadqiqotning nazariy asoslanganligini va empirik ishonchligini ta'minlaydi, bu esa tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha asosli va amaliyotga yo'naltirilgan takliflarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining barcha bosqichlarida mehnat migratsiyasi jarayoni yuz bergan va iqtisodiy adabiyotlarda bu jarayonga doir konsepsiyalarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Mehnat migratsiyasining rivojlanishi ikkinchi jahon urushidan so'ng ancha avj olgan.

O'zbekistonda mehnat resurslarining ko'chuvchanlik darajasi dastlab past bo'lishi holati kuzatilgan. Bu uning hududiy qayta taqsimlash imkoniyatini cheklagan. Mamlakatning bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan olib borilayotgan o'zgarishlar natijasida mehnat resurslarining ko'chuvchanlik darajasi biroz jonlangan deyish mumkin. Ammo u jarayonni ham etarli darajada deb bo'lmaydi. Bunday kam ko'chuvchanlik ayniqsa, qishloq aholisi o'rtasida yaqqol ko'zga tashlangan. Bu holat ularning industrial mehnatga faol jalb etilishiga to'sqinlik qilgan. Ma'lumki, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida mehnat resurslarining hududiy migratsiyasining kuchayishi bandlikning takomillashuvini ta'minlaydi. Shuningdek, aholining harakatlanishi bo'lib turmasa, rivojlanishning ham bo'lishi mumkin emas. Har bir rivojlanayotgan davlat o'ziga hos ravishda migratsiya jarayonlarining ma'lum bir bosqichidan o'tgan.

Mehnat resurslarining mamlakatlararo ko'chib yurishi tartibining erkinlashuvi zamonning o'ziga xos xususiyatlaridan biri sanalib, har qanday mamlakatda ham ijtimoiy taraqqiyotning hamda ushbu mamlakatning jahon xo'jaligi aloqalariga to'liq qo'shilib ketishining bevosita sharti hisoblanadi. Migratsion jarayonlar natijasida nafaqat aholi soni tarkibi, balki mehnat resurslarining shakllanishida ham o'zgarishlar ro'y beradi.

Respublikadagi migratsiya jarayonlar dinamikasini statistik ma'lumotlar asosida tahlil qiladigan bo'lsak migratsiya qoldig'i 1970-yillarning ikkinchi yarmiga qadar musbatligi bilan ajralib turadi. Bu davrda mintaqada migrantlarga yaratilgan keng huquqiy va iqtisodiy imtiyozlar respublikaga ko'chib keluvchilar oqimini tezlashtirgan. Natijada 1950-1974-yillarda O'zbekistonda migratsiya qoldig'i musbat ya'ni +832,5 mingga teng bo'lgan. Biroq, undan keyingi davrda aholining mexanik harakatida o'zgarishlar yuz berib, u migrantlarning tarkibi, hajmi, ayniqsa, ko'chib keluvchilarga nisbatan ketuvchilarning ko'pligi bilan xarakterlanadi. 1950-1979-yillar aholi soni hamda mehnat resurslari tarkibida migratsiyaning ulushi 2,5-3,7 foizga teng bo'lgan. Ammo, 1980-yildan boshlab aholi dinamikasida uning roli salbiylashib borgan. Jumladan, 1980-1989 - yillarda -17,4 promell, 1990-1999 - yillarda esa yillar davomidagi eng yuqor ko'rsatkich -31,0 promellga to'g'ri kelishi aholining umumiy sonini qisqarishiga sabab bo'lgan, bu ko'rsatkichlar 2000-2009 - yillarga kelib - 24,3 promellni, 2010-2023 - yillar -18,3 promellni tashkil etgan (1-jadval).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, migratsiya saldosi 1980-yildan boshlab manfiy tomonga o'zgargan. Migratsiya manfiy qoldig'ining katta bo'lishi ishsizlikning ortib borishi davrida birmuncha ijobiy xol hisoblansada, ammo bu hududning kasb-mahoratga ega bo'lgan malakali mutaxassislarni yo'qotishga olib keladi. Ichki migratsiyada migrantlarning harakati malakali mutaxassislarning qayta taqsimlanishiga olib keladi. Bu jarayon hududning mintaqaviy ixtisoslashuvi va sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishiga bog'liq holda amalga oshadi.

O'zbekiston Respublikasi aholisining o'sishi va uning asosiy omillari
(ming kishi hisobida)

Yillar	Umumiy o'sish	Tabiiy ko'payish	Migratsion ko'payish	Aholi o'sishi (promell)	
				Tabiiy ko'payish	Migratsiya
1951-1960	2201,0	2119,6	81,4	96,3	4,7
1961-1969	3404,0	3320,0	84,0	97,5	2,5
1970-1979	3958,0	3817,0	141,0	96,4	3,6
1980-1989	4015,0	4715,4	-700,4	117,4	-17,4
1990-1999	3913,6	5102,4	-687,6	121,7	-31,0
2000-2009	3045,7	4256,1	-742,4	113,3	-24,3
2010-2023	8024,6	7697,5	-344,1	243,1	-18,3

Manba: Jadval muallif tomonidan tuzilgan manba O'zbekiston Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari <https://stat.uz/uz/>

Migratsiya oqimlari hududning ishlab chiqarish salohiyati bilan bir qatorda aholi joylashuviga ham ta'sir ko'rsatadi. Zero, aholining biror mintaqada to'planishi aholi zichligini ortib borishiga, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yerlar, ayniqsa, sug'oriladigan maydonlarning qisqarishiga, bandlik muammosi va hududlar o'rtasida tafovutning vujudga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovut bu bevosita aholi daromadi va turmush darajasiga ham ta'sir etadi. Natijada ichki migratsiyasi yuz beradi, ya'ni aholi iqtisodiy jihatdan sust rivojlangan hududdan, yaxshiroq rivojlangan ishlab chiqarish yaxshi yo'lga qo'yilgan hududga ko'chib o'ta boshlaydi. Bu o'z navbatida aholining iqtisodiy nochor hududlardan yaxshi rivojlangan hududlarga oqib o'tishini cheklash, tartibga solish chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi. U quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin (2-jadval).

Migratsion jarayonlarni tartibga solish chora-tadbirlari

T/r	Hududlar holati	Amalga oshirish mexanizmi
1	Yangi o'zlashtirilayotgan	Yangi o'zlashtirilayotgan, istiqbolli hududlarga ko'chib boruvchilar uchun qo'shimcha imtiyozlar, ijtimoiy kafolatlar belgilash, joriy qilish;
2	Iqtisodiy ijtimoiy nochor (qoloq)	Qoloq hududlardan aholining chiqib ketishini to'xtatish uchun ularga ham qo'shimcha imtiyoz va rag'batlar berish
3	Nisbatan barqaror rivojlanishga ega	Turli hududlardan ko'chib kelgan migrantlarni ish bilan ta'minlash, ishga joylashtirish bilan bog'liq muommolarni hal qilish

Manba: jadval muallif tomonidan tayyorlangan.

Jadvalni tahlil qilgan holda shuni aytish mumkinki, bunday chora tadbirlarni amalga oshirish hududlar aholisining barqarorligini va rivojlanishini ta'minlaydi. Chunki, respublikada keyingi yillardagi aholining migratsion harakatlari ularning nisbatan sanoatlashgan shaharlarga va yaqin horijiy mamlakatlarga ish izlab borishlari bilan asoslanadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra respublikaning Toshkent, Samarqand, Farg'ona Navoiy viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida aholi migratsion harakatlari sur'ati boshqa viloyatlarga nisbatan yuqori. Shuni ham aytib o'tish mumkinki, migratsion harakati yuqori bo'lgan hududlarning tabiiy va demografik sharoitlar murakkab ko'rinishga ega, mehnat bozori nisbatan bosimli holatda, ya'ni demografik yukning mavjudligi oqibatida yuz bermoqda (Umarova, 2023). Migratsiya migrantlar ko'chib ketgan hudud uchun ham ular ko'chib kelgan mamlakatlar fuqarolari uchun ham noxush vaziyatlarni vujudga keltirishi mumkin. Bu ortiqcha mehnat resurslarini ish bilan ta'minlash muommosini hal qilish va ma'lum ma'noda aholi

migratsiyasini tartibga solishini yuzaga keltiradi. Bunda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim. 1) O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining mehnat migratsiyasini tartibga soluvchi qonunchilik ba'zasini takomillashtirish, 2) migratsiya to'g'risidagi va fuqarolarning mehnat migratsiyasi to'g'risida qonunlarni ishlab chiqish, 3) tashqi mehnat migratsiyasi monitoringini takomillashtirish, 4) fuqarolarning tashqi mehnat migratsiyasi sabab va maqsadlarini, yo'nalish va migratsion maylini, o'rganish. Mehnat bozoridagi tanglikni bartaraf etish yo'llaridan yana biri bu innovatsion xizmatlar sohasini rivojlantirish sanaladi. Mintaqalarda aholini yangi ish o'rinlari bilan ta'minlashning innovatsion shakllarini ommalashtirish hamda shart sharoitlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasidagi nutqida ta'kidlaganidek, "... asosiy ishchi kuchi yashaydigan va ish o'rinlari yaratilayotgan hududlarimiz o'rtasida tafovut mavjud. Buning yechimi-ichki migratsiyani erkinlashtirishdan iborat" (Mirziyoyevning, 2020). Bu malakali ishchi kuchini ish o'rinlari bilan ta'minlash maqsadida ichki migratsiyani rag'batlantirish geografik egiluvchanlikni ta'minlash va shart-sharoitlarni yaratishga bog'liq. Egiluvchanlikning ushbu jihatlari ish bilan bandlikni yuqori darajada bo'lishiga, texnologik o'zgarishlarga tezkor moslashishga, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali raqobatbardoshlikni oshirishga, mehnat bozorida talab va taklifni muvofiqlashtirishga, mehnat faoliyatiga yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilgan holda, ijtimoiy himoyaga muhtoj guruh qatlamlari uchun ham ish o'rinlarini saqlab qolish imkonini beradi.

Xorijga vaqtinchalik mehnat migratsiyasi O'zbekiston aholisini ish bilan ta'minlashning muhim istiqbolli yo'nalishi hisoblanadi. Ayni vaqtda tashkil etilgan mehnat migratsiyasi bo'yicha asosiy hamkorlar Koreya Respublikasi, Rossiya davlati bo'lib qolmoqda. O'zbekistonlik mehnat migrantlari Rossiyaning deyarli barcha hududlarida mehnat qilmoqdalar. Ularning soni 2000-yil 6,1 ming kishidan 2008-yil 344,6 kishiga ya'ni 56,5 martaga oshgan. Huddi mana shu yillarda O'zbekistonda migrantlar pul o'tkazmalari oqimining dinamikasi 3,8 marta oshgan (World Bank, 2008), 2022-yilda esa migrantlar 1454475 kishiga ularning pul o'tkazmalari 16 milliard \$ga yetgan (World Bank, 2023). Rossiya davlatidagi jami mehnat migrantlarining 42 foizini o'zbeklar tashkil etadi. O'zbekistonlik jami mehnat migrantlar yo'nalishining 61,5 foizi Rossiya davlatiga 16,9 foizi Qozog'iston, 6,1 foiz Turkiya, 2 foiz Janubiy Koreya 0,8 foiz BAA davlatlariga to'g'ri kelib, mavjud 2 million 356 ming mehnat migrantlarning 75,9 foizi erkaklar hamda 24,1 foizi ayollardan iborat¹.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra Rossiya O'zbekistonga pul o'tkazmalarining eng yirik manbai bo'lib qolmoqda va O'zbekistonga yuborilgan umumiy pul o'tkazmalarining qariyb 80 foizi shu davlatga to'g'ri keladi². Mamlakat bu borada Markaziy Osiyoda mutlaq yetakchi hisoblanib, dunyoda 15-o'rinni egallaydi. Ya'ni, qo'shni davlatlarga yuborilgan pul o'tkazmalaridan ancha ko'proqni tashkil qiladi. Masalan, yil davomida tojikistonlik migrantlar o'z oilalariga 3,2 mlrd dollar pul yuborgan bo'lsa, qirg'izistonliklarda bu ko'rsatkich 3,1 mlrd dollarni tashkil qiladi. Mehnat migrantlari tomonidan Qozog'iztonga 2022-yilda 370 mln dollar, Turkmanistonga esa atigi 1 mln dollar yuborilgan (World Bank, 2023).

O'zbekistondan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlariga ishlab kelish maqsadidagi migratsiya turi asosan Rossiyaga qaratilganining sababalridan biri bu hozirgi paytda Rossiya davlatida aholining tabiiy ko'payish darajasining pastligi natijasida mintaqada ishchi kuchi etishmasligi kuzatilmoqda. Masalan, Rossiyada hozirgi kunda asosan o'zbekistonlik yuqori malakali quruvchilar va ishchilar brigada bo'lib ishlamoqda. Shu bilan bir qatorda Rossiyaga juda ko'plab nolegal ravishda (yashirincha) malakasi bo'lmagan "qora ishchilar" ham ketishmoqda, ular past narxda bo'lsa ham, turli-tuman ishlarni bajaradilar. Ularni, Rossiyaning shahar va qishloqdagi xususiy firmalar va davlat tashkilotlari ishga taklif qiladilar (yollaydilar).

¹ <https://www.visualcapitalist.com/cp/remittance-flows-gdp-impact-by-country/>

² <https://www.visualcapitalist.com/cp/remittance-flows-gdp-impact-by-country/>

Aytish mumkinki, O'zbekiston aholisining ma'lum bir qismi, davlat organlari bilan hech qanday kelishuvsiz va shartnomasiz, yashirin tarzda xorijiy mamlakatlardagi chet el firmalarida ishlamoqdalar. "Nolegallar" xorijiy mamlakatlarga ko'pchilik hollarda mehmon bo'lib yoki shaxsiy takliflar asosida, sayyoh sifatida boradilar. Sayyohlik muddati tugagandan keyin esa, o'sha yerdan ish topib noqonuniy asosda o'sha mamlakatda ishlashga qolmoqda. Afsuski, respublikamiz aholisining xorijiy mamlakatlardagi bunday bandlik xajmi yildan-yilga oshib bormoqda, ya'ni amalda xorijga ishga ketayotgan mehnat migrantlari soni rasmiy ravishda tashqi mehnat migratsiya masalalari bo'yicha agentlik orqali jo'natilayotganlar sonidan ko'p bo'lib, bunday holat tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solishda muommolar mavjudligidan dalolat beradi.

Nolegal bandlikning keng tarqalishiga sabab bo'liuvchi omillardan biri bu vaqtinchalik ishga yollashdir. Bunday ishchilar ishga "qora mehnat" birjasida yollanadilar. Bunday mehnat birjalari respublikamizning deyarli hamma shaharlarida mavjud. "Qora mehnat" bozoridagilarning asosiy qismi, shaharlarga qishloqdan keladi. Ular shaharlardagi mehnat bozorida o'zlariga vaqtinchalik ish topadi. Bunday vaqtinchalik ishchilarni nafaqat odamlar, balki xususiy korxona, tashkilotlari tomonidan ham yollanadi.

O'zbekiston xalqaro mehnat bozorida teng huquqli sherik sifatida qatnashuvining mavjud imkoniyatlari faqat uning demografik ko'rsatkichlari, ya'ni aholining yuqori sur'atlarda o'sishi, mehnat resurslarining umumiy sonida yoshlar ulushining yuqoriligi bilan cheklanib qolmasdan, balki ularning ma'lumoti, saviya darajasi yuqoriligi bo'yicha ham ajralib turadi. Xorijdan ishchi kuchini qabul qilish ko'rsatkichlari O'zbekiston aholisining tashqi bandlik ko'rsatkichlaridan bir necha barobar kam. Asosan, Turkiya, Koreya Respublikasi, Afg'oniston, Xitoy va Markaziy Osiyodan O'zbekistonga ishlash uchun keladi.

Jahon iqtisodiyotida O'zbekistonning salmoqli o'rni bo'lishi hamda uning iqtisodiy-ijtimoiy istiqbolini ko'zlab rivojlangan mamlakatlarga fuqarolarimizni kasb o'rganib, ishlab kelishlarini tashkil etish usullarini yo'lga qo'yimoqda. Respublikaning xalqaro mehnat migratsiyasi jarayonlarida faol ishtirok etishi uning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi bilan bir qatorda yana bir qancha iqtisodiy afzalliklarga ega bo'lish imkonini ta'minlaydi.

Respublikada tashqi mehnat migratsiyasi masalalasi va ularni tashkil etish jarayonida xorijiy ish beruvchilarni izlash, ular bilan hamkorlik olib borishda bevosita davlatning har tomonlama ko'magi va faol ishtirok etishi talab qilinadi.

Bu sohadagi jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, mehnat migratsiyasini yo'lga qo'yish faqatgina bir vazirlik miqyosida emas, balki muqobil tarzda xususiy va xorijiy agentliklar, firmalar ishtirokida raqobat asosida tegishli davlat idoralarining ko'magi va nazorati o'rnatilgan holdagina samarali natija beradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat migratsiyasini legallashtirib, mehnat resurslarini jahon bozoriga eksport qilinishining ta'minlashi respublikaning mehnat bozoriga bo'lgan bosimini kamaytiradi.

Aholining tashqi mehnat migratsiyasida qatnashib, ichki mehnat bozoridagi keskinlikni kamaytirishi, jumladan, tashqi mehnat migratsiyasi orqali iqtisodiyotni rivojlantirishga investitsiyalar jalb qilish, ishchi kuchining malaka jihatidan xalqaro darajadagi raqobatbardoshligini ta'minlashi, ishlab chiqarish omillarining samaradorligini oshirishi, mutaxassislarining rivojlangan mamlakatlar yuqori texnologiyali tarmoqlarida va unga turdosh nou-xau ishlarida tajriba malaka orttirib o'z vatanlariga qaytishlari, milliy ishlab chiqarishning innovatsion samaradorligining o'sishi uchun shart-sharoitlar yaratishi mumkin, bu albatta ijobiy hol hisoblanadi. Ammo mehnat migratsiyasining salbiy oqibatlari ham mavjud bo'lib, bu avvalo chet elda ishlayotgan fuqarolarning ijtimoiy muhofazasidagi kamchiliklarda, obro'siz, kam xaq to'lanadigan ishlarga ham rozi bo'lishida ko'rinadi. Iqtisodiy jihatdan ish bilan bandlikning qisqarishi, qurilish, qayta ishlash sanoati, moliyaviy sektor, chakana savdo, turizm kabi sohalarida yaqqol namoyon bo'lishi, ushbu tarmoqlarda band bo'lgan migrantlar vaziyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xulosa va takliflar.

O'zbekiston sharoitida mehnat migratsiyasining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishi va demografik rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda ishlab chiqilgan takliflar mazkur mexanizmlarni kuchaytirish va migratsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

Mirziyoyev Sh. (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Oliy Majlisga Murojaatnoma. 25 yanvar. [Elektron manba]. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

Muxammedov, M.M. va Arabov, N.U. (2020). Tashqi mehnat migratsiyasi: muammo va yechimlar. *Journal of marketing, business and management*, 1(4), 43-63. ISSN: 2181-3000.

Remittance flows gdp impact by country. *Visual Capitalist*. [Электрон манба]. <https://www.visualcapitalist.com/cp/remittance-flows-gdp-impact-by-country/>

Tolometova, Z. (2016). Xalqaro migratsiya va uning o'ziga xos xususiyatlari. *Iqtisod va moliya*, (3), 59-68.

Umarova, Gulandom. (2023). Aholi ish bilan bandligini oshirish yo'nalishlarining nazariy asoslari. *Economics and education*. 24. 149-156. 10.55439/ECED/vol24_iss5/a24.

World Bank (2008). *World Development Indicators Database*. [Электрон манба]. Оценка экспертов // Экономическое обозрение, (3), p.50.

World Bank Group. KNOMAD. (2023). *Leveraging Diaspora Finances for Private Capital Mobilization (Migration and Development Brief 39)*. Washington, DC: World Bank. p.30.

Abdurahmonov, Q.X. (2019). *Mehnat iqtisodiyoti*. Toshkent: Mehnat. b. 254-255.

O'zbekiston Milliy Statistika qo'mitasi (2024). *Ma'lumotlar*. [Elektron manba]. <https://stat.uz/uz/>

Трюканова Е. (1996). Глобализация международной миграции, роль женщин. //Миграция женщин из России, ещё одна «стратегия успеха». Москва. - М.1996.- с 84 -102

Яновский Ю.А. (2001). *Международный Конгресс «Евразия: занятость в XX и веке» Международный семинар по трудовой миграции*. Москва: 2001.